

*Abduraxmanova Mutabar*

*II bosqich magistranti*

*Tarixshunoslik, manbashuboslik va tarixiy tadqiqot*

*usullari (MO bo'yicha) mutaxassisligi*

*Ilmiy rahbari: t.f.n.Lutfullayev H.*

## **Sharqshunos olimning 90 yillik tavalludi**

**(1927 yil 6- iyul - 1993 yil 28-oktabr)**

Xalqimizda “Yaxshidan bog‘ qoladi”<sup>1</sup> – degan maqol bejizga aytilmagan ekan. Shunday bog‘bonlardan biri – Pavel Bulgakov Georgievichdir. Uning xotirasi 24 yildirki xalqimiz qalbida chuqur iz qoldirgan. Olimning shogirdi tarix fanlari doktori, professor Shamsiddin Kamoliddinov ustoz haqida fikr bildirar ekan: “Ustozim – otamday ham ulug‘ edi. Chunki otam faqat dunyoga kelishimga sababchi bo‘lgan bo‘lsa, ustozim esa butun umrlik hayotimni belgilab berdi” – deb samimiyat bilan fikr bildiradi<sup>2</sup>. Shogirdiga otasidek mehribon ustozlardan biri, filologogiya fanlari doktori, professor, O‘z FA muxbir a‘zosi, arab filologiyasi bo‘yicha yirik mutaxasis Pavel Bulgakov Georgievich nomi – O‘zbekiston sharqshunosligi va xalqaro aloqalari bilan bevosita bog‘liqdir.

Olim tomonidan tayyorlangan katta fundamental asarlar, tarjimalar, ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar sharqshunoslikning yangi qirralarini ochib berdi. U yaratgan adabiyotlar va tarjimalar hozirgacha adabiyotshunoslar, tilshunoslar, tarixshunoslar, matematiklar, geograflar, tibbiyotchilar hamda kinomotograflar e’tirofidadir. Keng tarmoqli ijodkorning sermaxsul mehnatlari uning nomini sharqshunosligimiz tarixiga zarxal xarflar bilan bitilishiga sazovar qildi. Pavel Bulgakov yirik arabshunos olim bo‘lib, butun umrini Abu Rayhon Beruniy ilmiy asarlarini o‘rganishga va tarjima qilishga bag‘shida qilgan insonlardan. U Markaziy Osiyo madaniyati va tarixi, arab adabiyoti tarixi bo‘yicha 140 dan ortiq ilmiy ishlarga mualliflik qilib, Abu Rayhon Beruniy

<sup>1</sup> O‘zbek xalq maqollari. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. 2005y.

<sup>2</sup> INFOLIB. Axborot kutubxonasi xabar nomasi. №2. 2017 ISSN 2181-8207. Жизнь, посвященная науке. III. Камолиддинов, Тошкент давлат шарқшунослик институти профессори, т.ф.д Мeros. 74-77 sahifalar.

ilmiy ijodiyoti majmui tadqiqoti uchun Abu Rayhon Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureatidek oliy maqomga erishdi. Ustozi akademik A.Yu. Krachkovskiy (Qur'oni Karimning tarjimoni)ga munosib shogird sifatida o'zidan 2 ta fan doktori (Kamoliddinov Sh, Ho'jayeva R) va 6 ta fan nomzodi (Vahobova B, Qosimxo'jayev, Shoniyozov K,.....)

O'z zamonasining komil insonlaridan bo'lgan Professor Georgiy Bulgakov - Pavelning otasi – O'rta Osiyo davlat universitetida birinchi va yagona zoolog mutaxassis bo'lib, 1920 yilgi "Lenin esheloni"da Toshkentga keladi va oradan 7 yil o'tgach Pavel Bulgakov Georgievich 1927 yil 6-iyulda Toshkent shahrida dunyoga keladi. Yosh Pavel o'rta maktab ta'limini tugatiboq, II jahon urushining so'nggi yillariga qatnashadi. 1944 yil avgustda esa u Sovet armiyasining ko'ngillilari qatorida harbiy qismning uchuvchilik bo'limida kursant bo'lib, harbiy xizmatni davom ettirdi.

1945 yilda harbiy xizmatni tamomlagan Pavel O'rta Osiyo davlat universitetining sharqshunoslik fakultetiga o'qishga kirdi. Ammo o'quv programmasining umuman to'g'ri kelmaganligi sababli 1946 yilda o'qishni Leningrad davlat universitetiga ko'chirdi va sharqshunoslik fakulteti arab filologiyasi kafedrasining 1- kursiga qabul qilindi. O'qish davomida ham o'zining yetakchilik qobiliyati bilan boshqalardan ajralib turgan Pavel fakultetning badiiy havaskorlar to'garagiga va jamoat ishlariga rahbarlik qildi. Shuningdek ustozi Krachkovskiyning rahnamoligi hamda uning ma'ruzalarini tinglaganligi olimning yetuk arabshunos mutaxassisi bo'lishida katta turtki bo'ldi. Zamonaning o'tkir bilimdonlaridan, ya'ni professor V.I. Belyayevdan arab tilini, O'rta Osiyo SSSR FA muhbir a'zosi A. Yu. Yakubovskiydan arab halifaligi tarixini, akademik V.V. Struvdan Qadimgi Sharq tarixini o'rganganligi katta hayot maktabini o'tadi. U 1951 yilda Leningrad davlat universitetining arab filologiyasi kafedrasini tamomladi va o'sha yilning o'zida aspiranturaga kirdi. 1954 yilda esa "IX asr – X asr boshlarida O'rta Osiyo shahrlari va yo'llari arab geograflari nigohida" nomli nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. 1954-1957 yillar davomida Leningrad davlat universiteti sharq fakultetida arab tilidan dars berdi. So'ngra, 7 yilga (1957- 1964yillar) SSSRning BAR (yoki Misr va Suriya)dagi elchixonasi birinchi sekretari va Ittifoq Davlatlar Hamdo'stligi jamiyatining vakili sifatida Misr Arab Respublikasiga

yo'llanma oldi. Xorijdagi ko'p yillik bekam-u ko'st xizmatlari uchun Ittifoq Davlatlar Hamdo'stligi jamiyati Prezidiumi Pavel Bulgakov Georgievichga o'z minnatdorchiligini bildirdi, SSSRning BAR (yoki Misr va Suriya)dagi elchixonasi esa uning nomini Faxriylar kitobiga qayd qilib qo'ydi (1963 yil). U 1964 yil Misrdan qaytgach, O'z FA Sharqshunoslik institutida katta ilmiy xodim bo'lib ishlagan, 1971 yildan esa direktor o'rinbosari lavozimida faoliyat ko'rsadi. Pavel Bulgakov Georgievich chet eldagi faoliyatida 1962 yil Qohirada alohida kitob holida nashrdan chiqqan Beruniy "Geodeziya"sining tanqidiy matni tayyorladi. "Geodeziya" asarining rus nashriyotida tayyorlagan doktorlik dissertatsiyasini 1967 yili himoya qildi, ammo bir yil oldin (1966 yilda) u nashrdan chiqqan.

Jahon adabiyoti va tarjimasiga hali noma'lum bo'lgan qo'lyozmalar qatoridagi ustuvor ilmiy ishlar Pavel Bulgakovga tegishli edi. Buni Beruniyning "Geodeziya"si, "Qonuni Ma'sudiy" (B.A. Rozenfoldlar bilan muallifdoshlik asosida nashrdan chiqarilgan)larda ko'rish mumkin.

Pavel Bulgakovning 1972 yilda chop etilgan "Beruniyning hayoti va faoliyati" nomli fundamental monografiyasi Beruniy ilmiy merosini bizga chuqur tahlil qilib beradi.

Pavel Bulgakov juda keng doiralarga qiziqish bildirar edi. Ibn Sinoning "Tib qonunlari" nomli asarining ikkinchi nashrini tarjima qilishda M.A. Sol birgalikda ishtirok etdi. Eron va Xuroson, Kavkazorti mamlakatlari xususida to'xtalib o'tgan X asr sayyohining "Abu-Dulafaning ikkinchi qaydi" (A.B. Xalidov bilan birgalikda yozilgan) asari 1960 yilda nashrdan chiqdi. 1983 yil "Muhammad Al-Xorazmiy" (B.A. Rozenfold va A. Axmedovlar bilan muallifdoshlik asosida) nashrdan chiqdi. Pavel Bulgakov Sharqshunoslik Institutida fondida XII asrdagi Markaziy Osiyo olimi An-Nasaviyning "Yulduzlarning joylashuv o'rni va o'rta asr fanlari" asarini ochib berdi, bu asarda o'sha davrga oid turli xil ensiklopedik bilimlarini o'z ichiga qamrab oldi. Olim umrining so'nggi yillarida ilmiy asarlarining jamlanmasi hisoblangan Beruniy ilmiy qarashlari aks etuvchi "Odam. Yer. Olam" deb atalgan katta ishni yozdi. Afsuski bu asar hozirgacha nashr qilinmagan.

Tarixchi olimning nihoyasiga yetmay qolgan Ibn Al-Asirning "Al-Komil fit-tarix" (Tarixning umumiy xulosasi) asari uning vafotidan keyin nashrdan chiqdi. Asarni uning

shogirdi sharqshunos olim Shamsiddin Kamaliddin davom ettirib, yakunladi va 2006 yilda Toshkentda nashrdan chiqardi. Pavel Bulgakov jamiyat hayotida faol qatnashdi. U O'zbekistonning Arab mamlakatlari Hamdo'stlik jamiyati vitse prezidenti, Butun ittifoq sharqshunoslarining O'zbek filiali vakili, sharqshunoslikning tarixshunoslik sohasi bo'yicha sharq adabiyoti markaziy komissiya a'zosi, O'zbekistonda gumanitar fanlar jurnali to'plami a'zosi bo'lgan.

Bulgakov yosh mutaxassislar tayyorlash seminariyasi va barcha tadqiqotchi va aspirantlarga rahbarlik qilgan.

Bulgakov "Abu Rayhon Beruniy" ( rejissor Sh. Abbosov ) filmiga ssenariy muallifi bo'lgan. 1976 yilda bu ssenariy "San'at " nashriyotida chop etilgan. Film ekranlarga chiqqach, 1975 yil Kishinyovda 7- Butun Ittifoq kino festivalida bosh mukofotga sazovor bo'lgan. Bulgakov surunkalli kasallik tufayli 1993 yil 28 oktabrda vafot etgan.

Ustozining yorqin xotirasini yana bir bor yodga olish va uning 90 yillik tavalludini nishonlash maqsadida izdoshlari tarix fanlari doktori, professor Shamsiddin Kamoliddinov boshchiligida 2017 yilning 19 iyun kuni Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasida "Mangulikka xizmat qilgan alloma"<sup>3</sup>deb nomlangan xotira kechasini uyushtirdi. Tadbirga akademik Aziz Qayumov, akademik, tarix fanlari doktori, professor Ahmadali Asqarov, akademik Edvard Vasilevich Rtveladze, tarix fanlari doktori Ashraf Ahmedov, filologiya fanlari doktori, professor Ubaydulla Uvatov, filologiya fanlari doktori, professor Ra'no Xo'jayeva, filologiya fanlari nomzodi Muxlisa Boboxonova, tarix fanlari doktori Dilorom Yusupova, tarix fanlari nomzodi, sharqshunosMuborakxon Yunusxodjayevalar taklif qilindi. Kechani "O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi"ning siyosiy sharhlovchisi Qobilbek Karimbekov olib bordi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbek xalq maqollari. "Sharq"nashriyot-matbaaaksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.2005y.

---

<sup>3</sup> O'zbekiston milliy kutubxonasi axborot- kutubxona xabarnomasi. № 2. 2017

2. INFOLIB. Axborot kutubxonasi xabarnomasi. № 2. 2017 ISSN 2181-8207.  
Жизнь, посвященная науке. III. Камолиддинов, Тошкент давлат шарқшунослик  
институтини профессори, т.ф.д. Меров. 74-77 sahifalar.
3. O'zbekiston sharqshunoslari. Malik Abdusamatov. Bibliografik ocherk. Qomuslar  
bosh tahririyati. Toshkent-1996.
4. O'zbekiston sharqshunoslari bibliografiyasi/Tuzuvchi Alimulla  
Habibullayev. (1949-2001)
5. O'zbekiston milliy kutubxonasi axborot- kutubxona xabarnomasi. № 2. 2017
6. P. Bulgakov, Sh. Abbosov. Abu Rayxon Beruniy. "San'at". 1976
7. E. Yu. Yusupov, P. Bulgakov, A. Axmedov. Olim, zamonlar osha. "Fan" O'z SSR.  
Toshkent-1983